



OILALARDAGI AJRALISHLAR IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Barotova Nafisa Sadulloyevna

*Samarqand viloyati Toyloq tumani 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Oila — jamiyatning asosiy bo'g'ini, muqaddas maskan. Mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat ekanligi haqida jamiyat unutgan. Oilalarda ajralishlar davom etsa jamiyat tanazzulga yuz tutadi.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, oila, konfliktlar, ijtimoiy tarmoq, milliy qadriyatlar.

KIRISH

Oilada er-xotinning huquq va majburiyatlari yuzasidan tug'ilayotgan bahslar, turmushning darz ketishi va u bilan bog'liq mojarolar, ayrim xonadonlardagi mavjud notinch ma'naviy-ruhiy muhit natijasida sodir bo'layotgan nikohdan ajralishlar bugungi kunda jamiyatimizda jiddiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masaladir.

Arzimagan vajlar sabab oilani barbod etish, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. "Bolaning uvoli tutadi", degan gaplar ham o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Afsuski, uvol-savobni bilmaydigan, norasidalarining yetim qolishini uylamaydigan ota-onalar ham oramizda yo'q emas.

Xo'sh, nima uchun bunday holatning vujudga kelyapti? Asl sababi nimada? Tahlillarga ko'ra, bu muammoning bosh omili — ularning huquqiy bilimiga yetarli darajada ega emasliklari, huquqiy savodxonlik darajasining pastligidan dalolat beradi.



E'tibor qiling, ajralish tufayli noto'liq oila vujudga keladi. Ayni kunda aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar noto'liq oilalardan ekanligi kuzatilyapti. Yoki bo'lmasa, boshqa huquqbuzarliklar, odam savdosi qurbonlari, noqonuniy yo'l bilan chet davlatlarga chiqib ketayotgan yoshlar, ayollar, albatta, bularning barchasi asosan ajralish oqibatida yuzaga kelgan hamda noto'liq oilalarda bo'layotgani achinarli.

Oilalarning buzilish sabablari o'rganib chiqilganda, 28 ta holatda farzandsizlik, 7 tasida xiyonat, 34 tasida uzoq vaqt birga yashamaslik, 119 tasida oilaviy kelishmovchiliklar va qolgan holatlarda yoshlarimizning oila qurishga tayyor emasligi, sog'lig'iga e'tiborsizlik, yigitlarning oilani boshqarishni, ro'zg'orni moddiy ta'minlash, farzandlarni ma'nan hamda jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni o'z burchlari, deb bilmasliklari, qizlarning esa uy bekasi, onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolar tufayli yuzaga kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Qolaversa, ajrashish holatlari oilalardagi konfliktlar, o'zaro muhabbatning yo'qligi, fe'l-atvorning to'g'ri kelmasligi, er yoki xotinning kasalligi, achinarlisi, ayrim yigitlarning ichkilikbozlik, giyohvandlikka berilib ketishi yoki boshqa ayollar bilan hayot kechirishi natijasida ham kelib chiqqan.

Bilamizki, oilalar tinchligi va mustahkamligida oila boshlig'i — erkaklarning o'rni hamda mas'uliyati juda katta. Chunki hayotning qiyinchiliklarini ular o'z yelkalariga oladilar. Afsuski, amaliyotda ko'rib turibmizki, erkaklarning oilaviy munosabatlarda o'z o'rnini yo'qotib qo'yayotgani, ya'ni ikkinchi darajaga tushib qolayotgan holatlar ham yo'q emas.

Xo'sh, muammolarning oldini qanday olish zarur? Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu juda muhim ahamiyatga ega. Unda bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, ya'ni oiladagi ajrimlarni oldini olishda, asosan, yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ularda oila



muqaddas qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, ya'ni noodatiy usul va yondashuvlar asosida olib borish kerak.

Yoshlar oila atalmish muqaddas dargoh ostonasiga qadam qo'yar ekan, "Men oila qurishga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo'lishi uchun nimalar qilishim kerak?" degan savollarni o'ziga bersa, mustaqil hayotga yuzaki emas, o'ta jiddiy masala deb qarasa, oilalarda paydo bo'ladigan ba'zi bir noxush holatlarning oldi olinadi.

Baxt qasrining poydevori chidam hamda mehnatdan bunyod bo'lishini yoshlarimiz yurakdan his etishlari zarur. Zero, o'z uyida baxtli bo'lgan insongina chinakam baxtiyordir

Bizning eng katta najotimiz ilm olish, hayotimizga ma'rifatni singdirishdir. Oiladagi ajrimlarga ham va jamiyatda uchrovchi boshqa illatlarni bartaraf etishda ham ilmning roli cheksiz. Hayotda yashashning asl mohiyatiga tushungan odam uchun to'yning qanaqa o'tishi-yu, mebelning qanaqasi kelgani muhim emas. Umruguzaronlikdan maqsad "odamlar ko'rib qo'ysin", deb yashash emas. Biz yo'lning boshidan adashib ketyapmiz, qorong'ulikka tobora kirib boryapmiz. Buning uchun bizga Prezident ta'rif bergandek "nur" kerak. Nur esa islomiy ma'rifatdadir.

Davlat rahbari islomiy ma'rifatni yoshlar orasida keng yoyish, milliy qadriyatlarimizni ular ongiga yanada singdirish va bu orqali ularda sof ma'naviy tushunchalarni paydo qilish zarurligini ta'kidladi. Mana shu islohotda gap katta. Yana bir bor qaytarishdan charchamayman – agar biz ilmni, ma'rifatni barcha narsadan ustun qo'ymas ekanmiz, inson bo'lib dunyoga kelib, nima uchun tug'ilganimiz haqida mutassil tafakkur qilmas ekanmiz, iymonimiz ostiga har kuni suv qo'yib turmas ekanmiz, aytilish mumkinki, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga, kuchli davlat qurish kabi ulkan niyatimizga, jamiyatimiz farovonligiga yetishimiz qiyin kechadi, vaqt, zehn va kuch ortiq zoye ketadi.



Guldek oilasi buzilib, ruhiy bosim va ma'naviy inqirozga tushgan ayoldan bolasini tortib olish va uni o'z xohishiga qarshi er tomonga berish ayolga qilinadigan zolimlik, deb o'ylayman. Ayol bolasi bilan tirik, bolasi bilan hayot. Qanchadan qancha buzilgan oilalarning ayoli bolasi uchun yashayotgani, shular uchun yangi rejalar tuzib, shirin orzuhavasda umr kechirayotganini ko'rdik.

Ikkinchidan, "bolasi bor ekan, dardisarni nima qilaman", degan fikrga ega erkak yo'lboshidan yanglishgan kishidir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) "amallar niyatga bog'liq", deya lutf qilganlar. Niyatni to'g'ri qo'ymagan, yengillik ilinjida bo'lgan, keraksiz orzu-havaslarga berilgan, oldingi oilasidan nega ajrashgani haqida fikr yuritmagan va o'ziga xulosa chiqarmagan erkak ertaga ota va qaynota mavqega yetishsa, unda nima bo'ladi? Yana bir oila ota yoki qaynota maslahati berilib, saqlab qolinish o'rniga, e'tiborsizlik, ilmsizlik va mas'uliyatsizlik natijasida tanazzulga yuz tutadi.

Muammolarning asl ildizini topib, ilmi va oqil kishilar yordamida isloh etish bugungi kun talabidir. Bu borada kuchli-kuchli olimlarga, asarlarga, ko'rsatuv va eshittirishlarga, amaliy harakatlarga ehtiyojimiz bor..Ajrimlarning yuzaga kelishi va uning oqibatlari psixologik faktorlar asosida ko'rsatib o'tilgan.

Yurtimizda azaldan oila muqaddas qo'rg'on sifatida e'zozlangan. Zero, inson qalbida ahillik, mehr-oqibat tuyg'ulari, ilm-ma'rifatga oshno bo'lish ko'nikmasi, avvalo, shu aziz dargohda shakllana boshlaydi. Bosh qomusimizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, deb belgilanganligi zamirida ham ana shu milliy qadriyatlarimiz mazmuni mujassam. Oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida barqarorligini ta'minlash har bir mamlakatning doimiy e'tiborda bo'ladigan ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi.

Turmushimiz tobora farovonlashayotgan paytda oilalar mo'rtlashayotgani, oilaviy ajrimlarning birmuncha ko'payib borayotganligi tashvishlanarli holat.



Buning oqibatida qanchadan qancha oilalarning obro'si to'kilmoqda. O'rtadagi farzandlar tirik yetim bo'lib, bechora farzandlar ushbu holatdan sarson va sargardon bo'lib, nima qilishni bilmay qolmoqda. Otasiga boray desa ona norozi, onasiga boray desa ota ruxsat bermaydi.

Bola ikki o'tni orasida qolib, bir qancha mashaqqatlarga duch kelmoqda. Natijada esa bolaning tarbiyasi buzilmoqda. Ota-ona ajrimi aksar hollarda farzandni noqobil bo'lib voyaga yetishiga sabab bo'lmoqda. Ruhiy iztiroblar bolaning sog'lom voyaga yetishiga salbiy ta'sir qiladi. Qalbi butun umrga kemptik bo'lib qoladi.

Oila mustahkamligi jamiyat mustahkamligining garovi ekan, bu borada oilaviy ajrimlarga yetaklovchi omillarni tahlil etishning hayotiy ahamiyati bor. Oilaviy ajrimlarning salbiy oqibatlarini ko'pchilik, ayniqsa, katta yoshdagilar yaxshi tushunadi. Shu bois har bir insonning suyanchi sanaluvchi bu muqaddas dargohga darz yetmasin, deymiz.

Oilaviy ajrimlarga sabab bo'layotgan omillar juda ko'p. Keling, bugun ularning ayrimlari haqida fikr-mulohaza yuritsak. Aytaylik, oilalarning bir-biriga mos emasligi

(lo'nda qilib aytganda, teng tengini topmaganligi) ham ajrimlarni yuzaga keltiradi. Ya'ni kuyovning oilasidagi hayot tarzi kelinnikiga umuman o'xshamaydi. Ularning hayotga munosabati, dunyoqarashi, fikrlashi, moddiy imkoniyatlari butunlay farq qiladi. Oxiroqibat kelishmovchilik, o'zaro janjal, dilxiraliklar ro'y beradi va bu holat ajrim bilan yakunlanishi ham hech gap emas. Bunday vaziyatda ota-onaning bir umr yiqqanterganlari, to'yga qilgan xarajatlari, hattoki, shirindan-shakar farzandlar ham ko'zga ko'rinmay qoladi.

Masalan, urf-odatlar, qaynonaning kelinga soliq solishi, kuyovning esa kelin tomondan mulk ta'ma qilishi, kelinlarning ota uyiga "gap tashishi", telefon va ijtimoiy tarmoqlar, yoshlarning na fikrlash, na pul topish borasida mustaqil



emasligi, yigitlarning o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi, qizlarning esa "xo'p"dan yiroqligi, diniy bilimdan bexabarlik, o'zaro hurmat tushunchasining yo'qolishi, besabrlik, aybini tan olmaslik kabilar ham ko'p hollarda ajrimlarga sabab bo'layotganini ham tahlillar ko'rsatmoqda.

Ayrim erkaklar hech qayerda ishlamaydi. Ro'zg'orning butun tashvishlarini ayolining zimmasiga yuklab qo'yadi. Farzand tarbiyasiga ham qarashmaydi. Bu ayolni ham ma'nan, ham jismonan toliqtiradi.

Er yoki xotinning uzoq muddat chet davlatlar--da bo'lishi ham oraga sovuqchilik tushishi, oilalarga darz ketishiga olib kelmoqda. Haddan tashqari rashk qilish, bir-biriga ishonchsizlik ham ajralish sabablaridan biri.

Yoshlar kelin-kuyovlik haq-huquqlari, burch va mas'uliyatlarini yaxshi bilmasliklari, oilaviy madaniyatni tushunmasliklari, umuman olganda yoshlarning oila munosabatlariga tayyor emasliklari oila buzilishiga asosiy sabab hisoblanadi. Oila qurish, uni yuritish qanday amalga oshirilishi, oila a'zolarining bir-birlariga munosabati qay tarzda bo'lishi haqida muqaddas dinimiz ta'limotlaridan xabardor bo'lish oila mustahkamligining omilidir. Albatta, har bir narsani bilib, uning mazmun-mohiyatiga tushunib yetib, bilim asosida olib borilishi ko'p yaxshiliklarga sabab bo'ladi. Oila munosabatlari juda nozik va murakkab bo'lib, nihoyatda ehtiyot bo'lish, unga jiddiy qarash lozim. Farzandlarimizning faqat moddiy jihatlari emas, balki ma'naviy dunyosiga ko'proq e'tibor berishimiz zarur.

Eru-xotinlarning o'zaro munosabatlarida sabr va bag'rikenglikning yetishmasligi oila buzilishiga sabablardan biridir. Hayot juda murakkab jarayon bo'lib, unda turli holatlar uchrab turadi. Gohi shodlik, gohi g'am deganlariday oilada er va xotin o'rtasida ham turli sabablar ila kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Shoshqaloqlik, jahlning tez chiqishi, qanoatsizlik, manmanlik, tirnoq ostidan kir qidirmoqlik oilaviy munosabatlarga putur yetkazadi. Shuni aytib o'tish joizki, er



xotining bir yomon xulqidan norozi bo'lsa, uning boshqa yaxshi tomonlari ham bor ekanligini unutmasin. Ayol ham o'rni kelganda g'azabini yutishi, garchi yoqmasada, oilaviy hurmat yuzasidan ba'zi narsalarga chidashga odatlanishi lozim.

Statistikalarga ko'ra sevib turmush qurgan oilalarda ajralishlar soni ko'roq ekan.

Ma'naviy jihatdan bir-biriga sabr qilish lozim bo'lganiday, moddiy jihatdan ham qanoatli va sabrli bo'lish juda muhimdir. Chunki, oilada ko'pgina kelishmovchiliklar yetishmovchilikdan kelib chiqadi. Oila a'zolariga hurmat, qaynota-qaynonaning duolari degan narsalarga e'tibor kamayib ketayotganday go'yo. Har qanday vaziyatda ham oila muqaddas ekanligi, uning shu darajaga yetishida ota-onalarning mashaqqatli mehnatlari, harakatu xarajatlari va eng asosiysi vaqt sarf bo'lganini unutmaslik kerak.

Xalqimizda "Bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun baraka ketadi", degan maqol bor. Barakasi, xotirjamligi arigan oilada esa tinchlik, farovonlik bo'lmaydi. Bir oilaning ravnaqi mamlakat taraqqiyotiga daxldor ekani ham shundan.

Xulosa:

Shuni aytish lozimki, jamiyatimizning kelajagi oilalarning mustahkamligiga bog'liq. Oila nikoh asosida vujudga keladigan maskan. Uni yuritishda ilohiy ta'limotlarga amal qilinadigan bo'lsa, u haqiqatda mustahkam va bardavom bo'ladi. Bu borada har birimiz bir yoqadan bosh chiqarib, oilalarning mustahkamligi, jamiyatimizning sog'lomligi hamda farzandlarimizning porloq kelajagi yo'lida o'stirayotgan o'g'ilqizlarimizga to'g'ri tarbiya berib bormog'imiz lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008y.
2. “Oila psixologiyasi” Toshkent 2015-y.
3. Www.ziyouz.com.
4. Www.ziyounet.com.